NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-8]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

SHAXSGA YO‘ NALTIRILGAN TA’LIM VA SHAXSGA XOS UNIVERSAL TA’LIMIY FAOLIYATLARNING NAZARIY-QIYOSIY TAHLILI

Shomirzayeva Nargiza Sherali qizi
University of Business and Science oliy ta’lim muassasasi o‘ qituvchisi
nargizashomirzayeva2@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimidagi global o‘ zgarishlar, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi asosida o‘ quv jarayonini takomillashtirish masalalari yoritilgan. “Shaxsga yo‘ naltirilgan ta’lim” va “shaxsga xos universal ta’limiy faoliyatlar” (UTF) tushunchalari pedagogik-psixologik jihatdan nazariy-qiyosiy tahlil qilingan. Maqolada o‘ quvchining shaxsiy tajribasiga tayanish, individual ta’lim uslublarini topish, mustaqil o‘ qish, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik hamda ma’naviy-qadriyat yo‘ nalishlarni shakllantirish mexanizmlari ochib berilgan. Shuningdek, an’anaviy ta’limdan hamkorlikka asoslangan yondashuvga o‘ tish zaruriyati ilmiy asoslangan bo‘ lib, u o‘ quvchilarni zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan raqobatbardosh kadrlar qilib tayyorlashga xizmat qilishi ko‘ rsatib o‘ tilgan.*

Kalit so‘ zlar: *Shaxsga yo‘ naltirilgan ta’lim, shaxsga xos universal ta’limiy faoliyatlar (UTF), individual yondashuv, shaxsiy tajriba, tanqidiy fikrlash, ma’naviy-qadriyat yo‘ nalish, pedagogik-psixologik tahlil.*

ТЕОРЕТИКО-СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ И УНИВЕРСАЛЬНЫХ УЧЕБНЫХ ДЕЙСТВИЙ, ОБУСЛОВЛЕННЫХ ИНДИВИДУАЛЬНЫМИ ОСОБЕННОСТЯМИ ЛИЧНОСТИ

Аннотация: *В данной статье освещаются глобальные изменения в современной системе образования, а также вопросы совершенствования образовательного процесса на основе стремительного развития информационных технологий. Понятия «личностно-ориентированное обучение» и «универсальные учебные действия (УУД), обусловленные индивидуальными особенностями личности» подвергаются теоретико-сравнительному анализу с педагогической и психологической точек зрения. В статье раскрываются механизмы опоры на личный опыт учащегося, выявления индивидуальных стилей обучения, формирования навыков самостоятельного обучения, критического мышления, творческих способностей, а также духовно-ценностных ориентиров. Кроме того, научно обосновывается необходимость перехода от традиционного обучения к подходу, основанному на сотрудничестве, и показывается, что данный подход способствует подготовке конкурентоспособных специалистов, способных отвечать требованиям современного общества.*

Ключевые слова: *личностно-ориентированное обучение, универсальные учебные действия (УУД), обусловленные индивидуальными особенностями личности, индивидуальный подход, личный опыт, критическое мышление, духовно-ценностные ориентиры, психолого-педагогический анализ.*

THEORETICAL AND COMPARATIVE ANALYSIS OF LEARNER-CENTERED EDUCATION AND INDIVIDUALIZED UNIVERSAL LEARNING ACTIVITIES

Abstract: *This article examines global changes in the modern education system and issues related to improving the educational process through the rapid development of information technologies. The concepts of “learner-centered education” and “individualized universal learning activities (ULAs)” are analyzed from theoretical and comparative pedagogical and psychological perspectives. The article explores mechanisms for relying on learners’ personal experiences, identifying individual learning styles, developing independent learning skills, critical thinking, creativity, and spiritual and value-based orientations. Furthermore, the necessity of transitioning from traditional education to a collaborative learning approach is scientifically substantiated. It is demonstrated that such an approach contributes to preparing competitive professionals capable of meeting the demands of modern society.*

Keywords: *learner-centered education, individualized universal learning activities (ULAs), individualized approach, personal experience, critical thinking, spiritual and value-based orientations, pedagogical and psychological analysis.*

KIRISH

So‘ nggi yillarda ta’lim jarayonida ko‘ plab o‘ zgarishlar yuz bermoqda. Bu o‘ zgarishlar dunyoning deyarli barcha mamlakatlari ta’lim tizimida kuzatilmoqda. Internet, kompyuterlar, mobil qurilmalar va turli ta’lim platformalarining keng tarqalishi o‘ quv jarayonini tubdan o‘ zgartirmoqda. Buning natijasi o‘ laroq, ta’limni onlayn tarzda, istalgan vaqtda va istalgan joyda olish mumkin. Bu esa an’anaviy darsliklar va ma’ruzalardan tashqari, ko‘ plab yangi o‘ quv usullarini paydo bo‘ lishiga olib kelmoqda

Dunyoning tobora bir-biriga bog‘ liq bo‘ lib borishi turli madaniyatlar va mamlakatlar o‘ rtasida bilimlar almashinuvini kuchaytirmoqda. Bu esa o‘ quv dasturlarining xalqaro standartlarga moslashtirilishini, tillarni o‘ rganishning ahamiyatini oshirmoqda. Ishlab chiqarish va texnologiyalarning tez rivojlanishi tufayli bandlik bozorining talablari o‘ zgarib bormoqda. Zamonaviy mutaxassislar nafaqat bilimga ega bo‘ lishi, balki tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, jamoada ishlash, ijodkorlik kabi universal ko‘ nikmalarga ham ega bo‘ lishlari kerak. Bu jarayonda esa ta’lim markaziga o‘ quvchining o‘ zi, uning qiziqishlari, ehtiyojlari va individualligi qo‘ yilmoqda. Bu esa o‘ qitish usullarini individualizatsiya qilish, o‘ quvchilarning o‘ zini o‘ zi rivojlantirishiga imkoniyat yaratishga undamoqda. Bu undov an’anaviy ma’ruza va amaliy mashg‘ ulotlardan tashqari, onlayn kurslar, vebinarlar, interaktiv darslar, loyihaviy ta’lim, gamifikatsiya (o‘ yinlashtirish) kabi usullarni keng qo‘ llashni talab etmoqda. Bundan tashqari yuqoridagi faslda ta’kidlanganidek, “meta-fanni o‘ qitish”, “meta-faoliyat”, “meta-mavzu” kabi tushunchalar fanlararo aloqalarni kuchaytirish va universal ko‘ nikmalarni shakllantirishga qaratilmoqda. Bu o‘ quvchilarga bilimlarni yaxlit holda ko‘ rishga va murakkab muammolarni yechishga yordam beradi. Ushbu faoliyatlar o‘ quvchilarda mustaqil o‘ rganish, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik kabi zamonaviy jamiyat talab qiladigan ko‘ nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

Bu o‘ zgarishlar ta’lim tizimini yanada moslashuvchan, shaxsga yo‘ naltirilgan va kelajak talablariga javob beradigan qilishga qaratilgan. Shu o‘ rinda ikki bir-biriga o‘ xshash “shaxsga yo‘ naltirilgan ta’lim” va “shaxsga xos universal ta’limiy faoliyatlar” tushunchalar yonma-yon kelayotganligiga e’tibor qaratdik va ularni pedagogik-psixologik tomondan qiyosiy tahlil qilishni maqsad qilib oldik. Ularga quyida batafsil to‘ xtalamiz.

Adabiyotlar tahlili

Shaxsga yo‘ naltirilgan ta’lim - bu pedagogik ta’limning eng muhim yo‘ nalishlaridan biri bo‘ lib, unda o‘ quvchilarning shaxsi bilim va ko‘ nikmalarni o‘ zlashtirish uchun o‘ quvchilarning individual shaxsiy fazilatlaridan foydalangan holda rivojlanadi. Shaxsga yo‘ naltirilgan yondashuv metodologiyasi uzoq tarixga ega bo‘ lib A.N.Leontev, I.S.Yakimanskaya, K.R.Rojerslar maktabning bola shaxsini shakllantirishga ta’siri haqida ko‘ plab fikr yuritganlar.

Shaxsga yo‘ naltirilgan vaziyatni yaratish haqida so‘ z borganda, ta’limda shaxsga yo‘ naltirilgan ta’limni amalga oshirishga yordam beradigan asosiy vositalardan biri o‘ quvchining shaxsiy tajribasi ekanligini unutmaslik kerak, ya’ni subyekt tomonidan hayotiy vaziyatda xulq-atvor tajribasini anglash, bu individning shaxsiy salohiyatini qo‘ llashni, uning shaxs sifatida namoyon bo‘ lishini talab qiladi. “Shaxs bo‘ lish - bu vaziyatga bog‘ liq bo‘ lmaslik, uni o‘ zgartirishga intilish demakdir” [Serikov V.V., bet.89]. O‘ quvchining shaxsiy tajribasiga murojaat qilish motivatsiyaga tubdan ta’sir qiladi, chunki o‘ quvchining motivi va shaxsiy pozitsiyasiga u tomonidan olingan bilimlarning chuqurligi va mustahkamligi bog‘ liqdir.

Shuni ta’kidlash kerakki, ta’limning shakllangan uslubidan shaxsga yo‘ naltirilganga o‘ tish qisqa vaqt talab etmaydi. Turli texnologiyalar va ish tashkil etish shakllarini muntazam ravishda qo‘ llab, o‘ qituvchi dars tashkil etish uchun o‘ zi uchun ma’qul bo‘ lgan texnologiyalarni asta-sekin aniqlaydi, ulardan eng samaralilarini ajratib ko‘ rsatadi va vaqt o‘ tishi bilan buyruq uslubidan o‘ quvchilar bilan hamkorlik qilish uslubiga o‘ tadi.

N.A.Alekseyev o‘ z konsepsiyasining asosiga hodisaviylik prinsipini qo‘ yadi va “o‘ qitish hodisasi” tushunchasini “birga bo‘ lish” ma’nosida “shaxsga yo‘ naltirilgan o‘ qitish jarayoni” tushunchasiga aynan o‘ xshash deb ta’kidlaydi. “O‘ qitish hodisasi” deganda o‘ qituvchi va o‘ quvchining bilish vaziyatida birgalikda bo‘ lishi tushuniladi.

Tahlil va natijalar

Shaxsga yo‘ naltirilgan ta’limning muhim tarkibiy qismi o‘ quvchi faoliyatining natijalari emas, balki o‘ quv jarayonini tahlil qilishdir. Bunda o‘ quvchining pozitsiyasi o‘ zgaradi - tirishqoq ijrodan faol ijodga, uning fikrlashi boshqacha, refleksiv, natijaga yo‘ naltirilgan bo‘ ladi.

Axborot maydonining rivojlanishi ta’limning faktologik, mazmunli qismini o‘ quvchilar uchun yanada ochiqroq qilgan zamonaviy dunyoda o‘ qituvchining asosiy vazifasi o‘ zgarmoqda ya’ni o‘ quvchini bilim bilan ta’minlash o‘ rniga, uni mustaqil ravishda bilimlarni o‘ zlashtirish uchun ko‘ nikmalar va usullar to‘ plami bilan qurollantirishi kerak. O‘ qituvchi, avvalambor, har bir o‘ quvchiga o‘ zini anglash imkonini beradigan individual o‘ qitish uslubini topishga yordam berishi kerak. Ta’limning boshlang‘ ich bosqichini tugatgunga qadar o‘ quvchilar kerakli ma’lumotlarni qidirish strategiyalarini bilishlari, savollar berishni va ularga javob olishni bilishlari, mustaqil va tengdoshlari bilan hamkorlikda ishlashlari, o‘ z o‘ qishlarini rejalashtirishlari va o‘ zlari uchun muhim natijalarga erishishlari kerak.

Ba’zi o‘ qituvchilarda bunday murakkab vazifani bajarish, ayniqsa, gavjum sinflarda ularning kuchidan tashqari bo‘ lishi mumkinligi haqida xavotirlar paydo bo‘ lishi mumkin. Yaxshi yangilik shundaki, boshlang‘ ich sinflarda o‘ qish -

bu o‘ qituvchiga o‘ qitish usullarini tanlashda yetarli miqdorda erkinlik beradigan va shu bilan birga har bir o‘ quvchining qiziqish sohasini aniqlashga imkon beradigan ta’lim sohasidir. Ona tili darslarida sinf ishini tashkil etish usullaridan ba’zilarini qo‘ llagan holda, o‘ qituvchilar ulardan eng muvaffaqiyatlilarini ajratib ko‘ rsatishlari va kelajakda ularni boshqa predmet fanlariga “eksport” qilishlari mumkin.

Ko‘ p yillik amaliyot shuni ko‘ rsatadiki, o‘ qituvchi ta’limning boshlang‘ ich bosqichida kelgusi ta’lim uchun asos bo‘ ladigan yaxshi bilimlarni berishi, o‘ zini o‘ zi bilish qobiliyatini, o‘ z individualligini tushunishni rivojlantirishi, o‘ qish va o‘ zini-o‘ zi rivojlantirishga bo‘ lgan ehtiyojni shakllantirishi kerak. Shaxsga yo‘ naltirilgan ta’limning maqsadi yagona sinf jamoasida har bir o‘ quvchi bilan alohida o‘ quv imkoniyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ishlashga imkon beradigan psixologik-pedagogik sharoitlar tizimini yaratishdan iborat.

UTF - bu boshlang‘ ich sinfda barcha darslarda shakllantirilishi kerak bo‘ lgan faoliyatlar va ularni to‘ rtta asosiy blokga guruhlash mumkin: shaxsga xos, regulyativ, kognitiv va kommunikativ. Bugungi kunda o‘ qituvchidan o‘ quvchiga oddiy bilim, ko‘ nikma va malakalarni o‘ tkazish o‘ rniga, maktab ta’limining ustuvor maqsadi o‘ quvchining mustaqil ravishda o‘ quv maqsadlarini qo‘ yish, ularni amalga oshirish yo‘ llarini loyihalash, o‘ z yutuqlarini nazorat qilish va baholash qobiliyatini rivojlantirishga aylanadi, boshqacha qilib aytganda - o‘ qish qobiliyatini shakllantirish ya’ni, o‘ quvchining o‘ zi ta’lim jarayonining “arxitektori va quruvchisi” bo‘ lishi kerak.

Xulosalar

Shunday qilib, boshlang‘ ich sinf o‘ quvchilarini o‘ qitishda qiyinchiliklarning psixologik sabablari o‘ quv faoliyatining funksional bloklarining shakllanmaganligi bo‘ lishi mumkin: motivatsion blok - harakat maqsadini ajratish, anglash, qabul qilish (regulyativ UTF) qobiliyati yo‘ qligi, shuningdek maktab o‘ quvchisining o‘ quv-bilish qiziqishlarining yo‘ qligi (shaxsga xos UTF); yo‘ naltiruvchi blok - faoliyat jarayonining motivatsiyasini ushbu jarayonning aniq yo‘ nalishini o‘ zgartirolmaydi, maqsadga erishishda va harakat rejasini, dasturini, texnologiyasini ishlab chiqishda namoyon bo‘ ladi (regulyativ UTF); operatsion blok - o‘ quvchilarda ontogenezda psixika oladigan yetarli operatsion imkoniyatlar mavjud emasligi va ko‘ nikmalar, malakalar, odatlar, mahoratda ifodalanishi (kognitiv UTF); energetik blok - o‘ qishga intilish, irodaviy faollik, darslarda e’tiborlilik mavjud emasligi (shaxsga xos UTF), shuningdek xotiradan ma’lumot olishning yo‘ qligi (kognitiv UTF); baholash bloki - harakatni nazorat qilish va uni bajarish jarayonida zarur tuzatishlar kiritish qobiliyati yo‘ qligi (regulyativ UTF). Xo‘ sh, “o‘ quv faoliyatini shakllantirish nimani anglatadi”? Bu bilan biz o‘ quv faoliyatining funksional bloklarida yetishmayotgan tarkibiy qismlarni va ularning o‘ zaro bog‘ liqligini shakllantirishni (korrektsiyalashni), va buning pirovardida - “faoliyatning psixologik tizimini shakllantirish” [Shadrikov V. D. Kasbiy faoliyatning sistemogenez muammolari. M.: Fan, 1982. 184 b.] yaxlit ta’lim sifatida tushunamiz.

Shaxsga xos UTF quyidagilarni ta’minlaydi: – shaxsiy, kasbiy, hayotiy o‘ zini o‘ zi belgilash, ma’no hosil qilish, ya’ni o‘ quvchilarning o‘ quv faoliyatining maqsadi va uning motivi o‘ rtasida ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlardan kelib chiqib javob topa olishi kerak.

Shaxsga xos UTF o‘ quvchilarning qadriyat-ma’noviy yo‘ nalishini ta’minlaydi (faoliyatlar va voqealarni qabul qilingan axloqiy tamoyillar bilan bog‘ lash qobiliyati, axloqiy me’yorlarni bilish va xulq-atvorning axloqiy jihatini ajratish qobiliyati), shuningdek ijtimoiy rollar va shaxslararo munosabatlarda yo‘ nalish.

Shaxsga xos universal ta’limiy faoliyatlari - bu shaxsga yo‘ naltirilgan ta’lim doirasida shakllantirilishi kerak bo‘ lgan aniq ko‘ nikmalar va qobiliyatlar. Shaxsga xos universal ta’limiy faoliyatlari o‘ quvchiga o‘ z qadriyatlarini, motivlarini, maqsadlarini aniqlashga, axloqiy me’yorlarga rioya qilishga, o‘ zini o‘ zi baholashga va jamiyatda o‘ z o‘ rnini topishga yordam beradi. Shaxsga xos universal ta’limiy faoliyatlari - bu o‘ quvchining shaxsiy rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladigan “vosita” desak ham bo‘ ladi. Shaxsga yo‘ naltirilgan ta’lim va shaxsga xos universal ta’limiy faoliyatlar zamonaviy pedagogikada o‘ quvchining shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan bir-birini uzviy to‘ ldiruvchi yondashuvlardir. Ularning nazariy-qiyosiy tahlili shuni ko‘ rsatadiki, shaxsga yo‘ naltirilgan ta’lim ta’lim jarayonining gumanistik, falsafiy va shaxsiy xususiyatlariga ustuvorlik qaratib, o‘ quvchining sub’ekt sifatidagi mavqei, individual qobiliyatlari hamda hayotiy tajribasini birinchi o‘ ringa qo‘ yadi. Shaxsga xos universal ta’limiy faoliyatlar esa o‘ quvchining mustaqil ravishda bilim olishi, o‘ z-o‘ zini rivojlantirishi va har qanday o‘ zgaruvchan muhitda zarur bo‘ lgan universal ko‘ nikmalarni shakllantirishning aniq faoliyatli hamda texnologik mexanizmi vazifasini bajaradi. Agar birinchi yondashuv ta’lim jarayonini o‘ quvchining ichki salohiyatiga moslashtirishga xizmat qilsa, ikkinchi yondashuv shu jarayonni amalga oshirishda kerak bo‘ ladigan amaliy usullar va kompetensiyalar tizimini ta’minlaydi. Shu bois, muvaffaqiyatli ta’lim tizimi faqatgina shaxsni hurmat qilish bilan cheklanib qolmay, balki uni amalda qo‘ llash uchun zarur bo‘ lgan universal faoliyat usullarini egallash bilan birgalikda to‘ laqonli natija beradi.

ShYTa - bu me’morning shaharsozlikka bo‘ lgan umumiy qarashi (shaharni qulay, yashashga mos va estetik jihatdan chiroyli qilish), ShUTF esa me’morning binolarni loyihalashda qo‘ llaniladigan aniq chizmalari va texnik xususiyatlari (binoning mustahkam, funktsional va qulay bo‘ lishini ta’minlash)ga o‘ xshaydi.

Shaxsga yo‘ naltirilgan ta’lim va shaxsga xos universal ta’limiy faoliyatlarining farqi qisqacha qilib aytganda, shaxsga yo‘ naltirilgan ta’lim - bu falsafa, shaxsga xos universal ta’limiy faoliyatlari - bu esa ushbu falsafani amalga oshirish uchun ishlatiladigan aniq faoliyatlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Leontyev, A. N.** (1983). *Izbrannyye psixologicheskiye proizvedeniya* [Selected psychological works]. Moskva: Pedagogika.

2. **Yakimanskaya, I. S.** (1996). *Lichnostno-oriyentirovannoye obucheniye v sovremennoy shkole* [Personality-oriented learning in the modern school]. Moskva: Sentyabr

3. Rogers, C. R. (1969). *Freedom to Learn: A View of What Education Might Become*. Columbus, OH: Charles E. Merrill Publishing Company.

4. **Serikov, V. V.** (1999). *Obrazovaniye i lichnost: Teoriya i praktika proyektirovaniya pedagogicheskix sistem* [Education and personality: Theory and practice of designing pedagogical systems]. Moskva: Izdatelskaya korporatsiya "Logos".

5. **Asmolov, A. G.** (2008). *Kak proektirovat universalnyye uchebnyye deystviya v nachalnoy shkole: ot deystviya k mysli* [How to design universal educational activities in primary school: from action to thought]. Moskva: Prosveshcheniye.